XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 31-yanvar VII-5-5-9-130-K/25 Guliston shahar

Guliston shahrida toponomik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida

Kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha mihokama qilinib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari shahar kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil9-yanvardagi 05-19-338-sonli yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahrining Sohil mahallasidagi nomlanmagan 2 ta ko‘chalarni nomlash va turiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 9-yanvardagi 05-19-338-sonli yig‘ilish bayoni qarori bilan taklif etilgan ko‘chalarning nomlari va turi ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Guliston shahar hokimi o‘rinbosari (X.Ergashev), shaxar IIB boshlig‘i (B.Sayitnazarov), shahar Adliya bo‘limi (S.Togayev), shahar Statistika bo‘limi (F.Musayev), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Raqibov), Davlat xizmatlari markazi (B.Abdukadirov), Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (L.Axmedov), Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali (K.Ismoilov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Atabayev) va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e‘tiborga olinsin va ushbu qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. **Shahar hokimi o‘rinbosari (X.Ergashev) va Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (L.Axmedov):**

- 15 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavhalar va uy raqamlarini yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalarni o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish hamda nazoratga olish vazifalari yuklansin;

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

5. **Shahar ichki ishlar boshqarmasi (B.Sayitnazarov)ga:**

- shahar mahallalari hududidagi yangi nomlangan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi fuqarolik pasportlarini berish va ularni ro‘yhatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklansin.

6. Shahar hokimligi bosh yuristkonsulti (lavozim bo‘yicha) mazkur qarorni elektron jamoatchilik muhokamasiga joylashtirsin.

7. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Sh.Yunusov):

- Hududlardagi yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarga va hokimlikning veb-saytiga ma’lumotlarni joylashtirsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi

XODJIMANOV
JAMOLIDDIN
XUSNUDDINOVICH

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-5-5-9-130-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Guliston shahar Sohil mahallasidagi 2 ta ko‘chalarni turiga o‘zgartirish kiritish va qayta nomlash uchun berilgan takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Taklif etilayotgan nom
1.	Ko‘cha	Sohil MFY	Nomsiz (Xondamir-2 tor)	Bog‘iravon
2.	Ko‘cha	Sohil MFY	Nomsiz (Xondamir-3 tor)	Boyovut